



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2026-yil 18-mart

N° 2111

O'zbekiston Respublikasining ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 69-72-moddalari va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Xojamkulova Surayyoxon Rustamovna – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent shahar sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Bakayev Shuhrat Shavkatovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent shahar jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Axunbayev Sherzodbek Alisherovich – sudyalik vakolati muddati davriga Farg'ona viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Farg'ona viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tumanlararo sudining raisi lavozimidan ozod etilsin;

Oripov Ulug'bek Nazirovich – sudyalik vakolati muddati davriga Farg'ona viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Rishton tumanlararo sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov